

## YOZMA NUTQ KAMCHILIKLARINI BARTARAF ETISHDA OLIB BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHLAR METODIKASI

**Raxmonov Umidjon Jalol o'g'li**

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax Pedagogika Univeriteti Pedagogika Psixologiya (logopediya)*

*yo'nalishi 3 – kurs - 519.22 guruh talabasi*

+998949752000

[umidjonr871@gmail.com](mailto:umidjonr871@gmail.com)

**Anatatsiya:** Bugungi maqolamizda yozma nutqni tashkil etishda asosan, kirish so'zlar hamda badiiylik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlardan foydalanish malakalarining paydo bo'lishi, yozma nutq mexanizmining eng rivojlangan va o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini namoyish qilishi eng asosiy vositalardan biri hisoblanishi hamda yozmanutqdagi nuqsonlar xalqlari notori shakllanishi yoki imloviy jihatdan qo'pol xatolarning yuzaga kelishi bilan ifodalanishi ular turli xil elementlar, birikmalar va so'zlarni qisqartirish haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Yozma nutqni tashkil, , kirish so'zlar , hamda badiiylik , , yozma nutq mexanizmi, imloviy jihatdan qo'pol xatolar, turli xil elementlar, birikmalar va so'zlarni qisqartirish

### **Kirish**

Bilamizki, bugungi kunda fanlar aro integratsiyaning ommalashuvi natijasida o'quvchilarning nutqiy savodxonlikka erishishiga qaratilayotgan e'tibor yanadayuksalibbormoqda. Shuning bilan birga, talabalar nutqiy savodxonligining eng yuqori bo'g'inidaturuvchi fikriy erkinlikning ahamiyati ham katta rol o'ynaydi. Ayni bu borada esa monologiknutq vositasida ifoda etiladigan tushunchalar va qarashlarning ahamiyati kattadir. Ushbunutqshaklining og'zaki tarzda anglashilishi talaffuzda namoyon bo'lib, intonatsiyaning tutgano'rnibilan anglashiladi. Shuningdek, so'zlovchining fikri qaratilgan shaxslararo munosabatshakllarining to'liq va to'g'ri tarzda namoyon etilishi ham nutq tarkibining kompozitsion tuzilishiga aloqadorlikni kasb etadi. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqdagikamchiliklarini tanqid qilish ehtiyotkorlikni talab etadi. Qo'pol tanbeh, noto'g'ri tanqido'quvchilar o'rtasidagi yaxshi muomalani buzishi, o'quvchini o'rinsiz ranjitishi mumkin, shuning uchun ham o'qituvchi, nutqiy muomala qilishda pedagogik odob talablarigarioyaqilishi, o'quvchilarning insoniy qadr-qimmatini, obro'sini saqlashga intilish zarur. Onatili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilimoladilar; ularkuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari bo'yicha to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Yozma nutqning ham amaliy vositalar asnosida rivojlanishiga erishish pedagogic jihatdan muhim ahamiyat kasb etishini unutmazlik lozim.<sup>[1]</sup> Monologik nutqda so'zlovchi o'z fikr va mulohazalarini subyektiv munosabat vositasida ham bayon qilishi mumkin. Shuningdek, monologik nutqning ahamiyatlilik darajasini oshirishda uning kishilik jamiyatimizdaso'zlovchi va tinglovchi munosabatlarining ham og'zaki ham

yozma tarzda namoyon etilishida anglash mumkin. Yozma nutqni tashkil etishda asosan, kirish soʻzlar hamdabadiylik boʻyogʻiga ega boʻlgan soʻzlardan foydalanish malakalarining paydo boʻlishi lozim boʻladi. Yozma nutq mexanizmining eng rivojlangan va oʻquvchilarning fikrlash qobiliyatini namoyish qilishdagi eng asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Yozma nutqdagi nuqsonlar xalqlari notori shakllanishi yoki imloviy jihatdan qoʻpol xatolarning yuzag kelishib bilan ifodalanadi ular turli xil elementlar, birikmalar va soʻzlarni qisqartirish vositasida ham yuzaga kelishi mumkin. Nutq bu – bu fikr bayon qilish vositasi boʻlib, ogʻzaki va yozma shaklda ifodalaymiz. Ogʻzaki nutq pauza, urgʻu, intonatsiya va tovushlar orqali tinglovchiga borib etsa, yozma nutq harf va soʻzlarning maʼlum qonuniyati asosida oʻzaro birikib, tinish belgilari, har xil ajratishlarigaplarni gramatik jihatdan aniq va tovushlarni bayon qilish orqali etib boradi. Yozma nutq murakkab jarayon boʻlib, u koʻp vaqt mehnat talab qiladi. Sintaksis jihatdan qaraganda yozma nutq eng toʻliq va mukammal nutqdir. Bu nutq ixtiyoriy fikrimizni ifodalab berishning eng yaxshi vositasidir. Bolalarning ogʻzaki nutqida kamchiliklar uchragani kabi, yozma nutqlarida ham bir qator kamchiliklar uchraydi. “Maktablar oʻquvchilar nutqini oʻstirish, aqliy, ijodiy yoʻzishiga moʻljallangan yangi dasturga oʻtishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada oshdi. Ogʻzaki yozma inshoga oʻrgatish jarayonida oʻquvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, oʻz inshosini aniq fikrga boʻysundirish, material toʻplash, uni tartibga solish va joylashtirish, rejatuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish koʻnikmalari hosil qilinadi. [2] Bulardan tashqari, „texnik“ vazifalar ham amalga oshiriladi, yaʼni matn yozishda imlo qoidalari va husnixatga eʼtibor berish, matn xatboshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi. Ogʻzaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi. Insho material manbaiga koʻra uchga boʻlinadi:

- 1) oʻquvchining oʻzi koʻrgan-bilganlari, eshitganlari haqidagi, kuzatishlar, ekskursiyalar, oʻyinlar, oʻz tajribasi va boshqa jonli materiallar asosidagi insho;
- 2) kitob materiallari, rasmlar, film, spektakl, oʻqituvchi hikoyasi va boshqa manbalar asosidagi insho;
- 3) turli manbalar materialidan foydalaniladigan insho.

Harf va soʻzlarning yozilish meʼyoriga qarab kinestik nazorat koʻrish va yozilganlarni oʻqish bilan mustaxkamlanadi. Yozuv jarayoni nutqli va nutqsiz vazifalar: tovushlarni eshitishda ajratish, ularni toʻgʻri talaffuz etish, til va sintezi, nutqning leksik va gramatik jihatdan shakllanganini asosida amalga oshadi. Koʻrsatilgan vazifalardan birontasining shakllanmay qolishi yozuv koʻnikmalarini egallash jarayonining buzilishiga disgrafiyaning vujudga kelishiga sababchi boʻlishi mumkin. Oʻqish va yozishdagi buzilishlar bir biriga oʻxshash boʻladi. Yozuvi buzilgan bolalarda koʻpgina oliy psixik funksiyalar: qobiliyatning

tahlili va sintezi, fazoviy tasavvurlar, nutq tovushlarini koʻrish eshitish orqali farqlash, fonematik hamda boʻgʻinli analiz-sintez qilish, gapni soʻzlarga ajratish, nutqning leksik va gramatik tuzilishi, xotira, diqqat-eʼtibor, sukcesiv va simultan jarayonlarining emotsionalirodaviy sohaning shakllanganligi kuzatiladi. [3]

Motor disgrafiya – qoʻlning yozuv paytida qiyin xarakterga kelishi, motor obrazlaridagi aloqalarning soʻzlariga tovush va koʻrish obrazlari bilan birgalikdagi buzilishi unga xosdir.

Disgrafiyaning bartaraf etishda yozuv mashqlari katta oʻrin tutadi. Artikulator – akuvtik disgrafiyaning bartaraf etishda avval tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni toʻgʻrilash lozimdir. Ishning boshlangʻich davrida tovushlarni aytib takrorlamaslik tavsiya etiladi, chunki bu holatda yozuvda xatoliklarga yoʻl qoʻyilishiga olib kelishi mumkin. Disgrafiya va fonematik disleksiyani bartaraf etishda tilning analiz va sintez tomonini rivojlantirish.

Gapda soʻzning soni, ketma-ketligi va oʻrnini aniqlash qobiliyatini quyidagi topshiriqlarni bajarish orqali shakllantirish.

1. Sujetli rasmlar asosida gap tuziz va gapdagi soʻzlar sonini aniqlash;
2. Maʼlum miqdorda soʻzlar boʻyicha gap oʻylab topish;
3. Soʻzlar sonini koʻpaytirib, gapni kengaytirish;
4. Gapda soʻzlar oʻrnini aniqlash;
5. Maʼlum sondagi soʻz ishtirok etgan gaplarni matndar ajratish;
6. Gapda nechta soʻz boʻlsa, shuni koʻrsatuvchi sonni koʻrsatish.

Oʻqish va yozuv buzilishlarini oldini olish maktabgacha yoshda oʻtkaziladi. Bu ishlarayniqsa nutqida kamchiligi boʻlgan bolalar, ruhiy rivojlanishida toʻxtalish boʻlgan, aqli zaif vaboshqa anomal bolalar bilan oʻtkazilishi taqqazo qiladi. Bunda olib boriladigan asosiy ishlarfazoviy koʻrish funksiyasini, diqqat, xotira, analitik, sintetik faoliyat, til analiz-sintezinshakllantirish, nutqning leksik gramatik tomonini rivojlantirish va ogʻzaki nutq kamchiliklarini bartaraf etishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda yozma nutq buzilishlari bolaning ham jismoniy ham ruhiy, nuqsonlari kelib chiqishini odini olish, jamiyatdagi bu nuqsonlar haqida tushunchalarni shakllantirish, aholi orasida targʻibot ishlarini olib borish kerak.Xozirgi kunda farzandlarimizda uchraydigan yozma nutq nuqsonlari avj urayotgan bir paytda biz logoped oʻqituvchilarning oldimizda juda katta maʼsulyat va burch bor va biz bu vazifani sidqidildan bajaramiz.

#### **Foydalangan adabiyotlar**

1. Xasanboyeva Shoiraxon. Yozma nutqni rivojlantirish. Proceedings of internationalConference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online fromPlano, Texas, Usa-2022
2. Kadamova Mohinur Mamurbek qizi. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarning ogʻzaki vayozmanutqini rivojlantirish usullari. Международный научный журнал No7(100), часть2«Научный импульс» Февраль, 2023
3. Chet tillarda oʻqishni oʻrgatish metodikasi boʻyicha insholar - T.: / 2. Ed. I.M.Berman va V.A.Buchbinder. - Kiev: Oliy maktab, 2017 yil.
4. Hoshimov Oʻ. Yoqubov I. Ingliz tili oʻqitish metodikasi. - T.: Sharq nashriyot-matbaaaksiadorlik kompaniyasi Bosh tahririyat, 2013.
5. V.V.Shelenkova,I.B.Korelina.Bolalar oʻsmirlar va kattalardagi nutq va ovozning buzilishi .
6. E.S.Almazova.Logopedik ish bolalarda ovozni tiklash.2005
7. V.V.Shelenkova,I.B.Korelina.Bolalar oʻsmirlar va kattalardagi nutq va ovozning buzilishi 2005. M.Y.Ayupova.Logopediya Toshkent 2007
8. 8: K.P.Bekker,M.Sovak.Logopediya.1981